



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No1
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 152 sahifa.
2026-yil yanvar*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSİYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUHOJAJATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI VAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ.....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



BUXORO VILOYATINING MADANIY VA TARIXIY MEROSI ASOSIDA KREATIV TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI.....	91
Davronova G.O., Tursunova G.R.	
MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES	96
Ilamonov Mehroj Akbar o'g'li, Xayitov Jamshid Xolvoyevich	
KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	102
Alimov Umid Xamid o'g'li, Umarov F. U.	
SURXONDARYO VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING AHAMIYATI.....	109
Mamanazarov Javohir Kamolovich, Xurramov Ramazon Allayor o'g'li	
XALQARO BANKLAR TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI KREDITLASH MEXANIZMI VA UNING IQTISODIY TA'SIRI	115
Boltayeva O'g'iloy, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI VA UNING USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	119
Sharipova Mohinur, Uralova Sevara, Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIK: ZAMONAVIY INTEGRATSIYA YO'NALISHLARI.....	123
A'zamova Feruza Abduholiq qizi, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
DIRECTIONS FOR IMPROVING PUBLIC WELFARE AND REDUCING POVERTY.....	127
Jumanazarov Ro'zmurod, Rabbimov Elbek Abdulloevich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
THE EVOLUTION OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, DRIVERS, AND FUTURE PROSPECTS.....	132
Madina Abdujabborova, Nozima Zufarova	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONINI BOSHDAN KECHIRAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA BOZORLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	136
Hayot Abduqodirov, G'olib Baxriddinov, Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES THROUGH THE USE OF MONETARY AND CREDIT INSTRUMENTS IN BANKS	141
Mustafaeva Khurliman Azat kizi, Baymuratova Zina Aqilbekovna	
KICHIK BIZNES SUBEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI	147
Xakimova Go'zal Akbar qizi, Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	



KICHIK BIZNES SUBEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI



Xakimova Go'zal Akbar qizi

Namangan davlat texnika universiteti,
Buxgalteriya hisobi kafedrasida talabasi



Ilmiy rahbar:

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
xulugbek1984@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3589-373X

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etish kichik biznesning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirish hamda bozor talablariga moslashuvchanligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada innovatsion faoliyatning mohiyati yoritilib, uni yanada rivojlantirishni taqozo etayotgan asosiy omillar aniqlangan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining innovatsion salohiyatini oshirishda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq imtiyozlari, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, innovatsion faoliyat, innovatsiya, tadbirkorlik, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, raqobatbardoshlik, moliyaviy rag'batlantirish, soliq imtiyozlari, texnoparklar, raqamli texnologiyalar, innovatsion infratuzilma.

Abstract: This article provides a scientific and practical analysis of issues related to stimulating the innovative activity of small business entities. In the context of modern economic development, the introduction of innovations is an important factor in ensuring the sustainable growth of small businesses, enhancing their competitiveness, and improving their adaptability to market demands. The paper clarifies the essence of innovative activity and identifies key directions for its further development. Particular attention is paid to the role of financial support mechanisms, tax incentives, the development of innovation infrastructure, workforce training, and the wide implementation of digital technologies in strengthening the innovative potential of small businesses. The research findings have practical significance for improving economic policy aimed at supporting small businesses.

Key words: small business, innovative activity, innovation, entrepreneurship, state support, competitiveness, financial incentives, tax benefits, technoparks, digital technologies, innovation infrastructure.



Аннотация: В данной статье научно и практико-ориентированно проанализированы вопросы стимулирования инновационной деятельности субъектов малого бизнеса. В современных условиях экономического развития внедрение инноваций является важным фактором обеспечения устойчивого роста малого бизнеса, повышения его конкурентоспособности и адаптивности к требованиям рынка. В работе раскрывается сущность инновационной деятельности и определяются ключевые направления её дальнейшего развития. Особое внимание уделено значению финансовых механизмов государственной поддержки, налоговых льгот, развитию инновационной инфраструктуры, подготовке кадров и широкому внедрению цифровых технологий в повышении инновационного потенциала малого бизнеса. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования экономической политики, направленной на поддержку малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, инновационная деятельность, инновации, предпринимательство, государственная поддержка, конкурентоспособность, финансовое стимулирование, налоговые льготы, технопарки, цифровые технологии, инновационная инфраструктура.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayishi va texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida innovatsion faoliyat iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari innovatsiyalarni joriy etish, yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonida muhim o'rin egallaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida kichik biznes innovatsion tizimning ajralmas bo'g'ini sifatida qaralib, ularni davlat tomonidan moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, OECD ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda innovatsion mahsulotlarning salmoqli qismi aynan kichik va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu korxonalarining yuqori moslashuvchanligi, bozor talablariga tezkor javob qaytarish qobiliyati hamda innovatsion g'oyalarni amaliyotga samarali joriy etish salohiyati ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish masalalari iqtisodiy nazariya va amaliyotda keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim manbai sifatida talqin etiladi. Innovatsion rivojlanish nazariyasining klassik asoslari J. Shumpeter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u innovatsiyani yangi mahsulotlar, texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va bozorlarni joriy etish orqali iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlaydi [1]. Mazkur yondashuv kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirish orqali iqtisodiyotning tarkibiy yangilanishiga erishish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda kichik va o'rta biznesning innovatsion rivojlanishdagi roli alohida e'tirof etiladi. OECD tadqiqotlariga ko'ra, kichik biznes subyektlari innovatsion faoliyatda yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lib, bozor talablariga tezkor javob qaytarish qobiliyati ularning raqobatbardoshligini oshiradi [2]. Tadqiqotlarda, ayniqsa, davlat tomonidan yaratilayotgan qulay institutsional muhit, moliyaviy rag'batlar va innovatsion infratuzilmaning rivojlanganligi kichik biznesning innovatsion faolligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda venchur kapital, startap ekotizimi va texnoparklarning kichik biznes innovatsion rivojlanishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasida innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznes subyektlarining ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgani qayd etiladi [2]. Ushbu yondashuv kichik biznes innovatsion salohiyatini oshirishda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishdagi roli tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Milliy tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirishda davlat siyosati, soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlash hamda infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan [3]. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda O'zbekistonda innovatsion infratuzilmani yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarurligi qayd etiladi, bu esa kichik biznes innovatsion faolligini yanada oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, moliyaviy rag'batlantirish, innovatsion infratuzilmani



rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi. Shu jihatdan, xorijiy tajribani milliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish va samarali amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish yo'llarini aniqlash va baholash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan tizimli ravishda foydalanildi.

Dastlab, nazariy tahlil usuli asosida innovatsion faoliyat, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid xorijiy hamda milliy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (OECD va boshqalar) hisobotlari o'rganildi. Ushbu usul innovatsion rivojlanishning nazariy asoslarini aniqlash va muammoning mohiyatini ilmiy jihatdan yoritishga xizmat qildi.

Tadqiqotda taqqoslama tahlil usuli yordamida O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlari solishtirildi. Bu usul orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq rag'batlari va innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasidagi farqlar aniqlanib, ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Shuningdek, statistik tahlil usuli asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari qayta ishlanib, kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni hamda uning innovatsion salohiyati dinamikasi tahlil qilindi. Statistik ko'rsatkichlar asosida mavjud tendensiyalar aniqlanib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot davomida mantiqiy tahlil va sintez usullari qo'llanilib, kichik biznesning innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirildi hamda ularni rag'batlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, induksiya va deduksiya usullari orqali umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda rasmiy statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni innovatsion asosda qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay biznes muhitini shakllantirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar izchil amalga oshirilmogda. Xususan, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da kichik biznesning innovatsion salohiyatini oshirish, texnoparklar va biznes-inkubatorlar faoliyatini rivojlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyati moliyaviy resurslarning cheklanganligi, innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ilmiy muassasalar va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurati kabi omillar bilan tavsiflanadi. Bu esa mazkur sohada xorijiy ilg'or tajribani chuqur o'rganish, uni milliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish hamda samarali rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhimligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyati iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kichik va o'rta biznes subyektlari innovatsiyalarni joriy etishda yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lib, bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga nisbatan tezkor qaror qabul qilish qobiliyati bilan ajralib turadi [1]. Bu esa ularning yangi texnologiyalar, mahsulot va xizmat turlarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanishda kichik biznesning ulushi izchil ortib bormogda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda innovatsion mahsulot va xizmatlarning salmoqli qismi aynan kichik va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi [2]. AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda innovatsion startaplar, venchur kapital bozori va akseleratsiya dasturlari orqali kichik biznesning innovatsion salohiyati samarali qo'llab-quvvatlanmogda. Mazkur mexanizmlar kichik biznes subyektlariga moliyaviy resurslardan foydalanish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion asosda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmogda. Davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, texnoparklar,



biznes-inkubatorlar va innovatsion markazlar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu yo'nalishda innovatsion faollikni kuchaytirish iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish imkonini beradi [3].

Shu bilan birga, O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini yanada faollashtirish zarurati mavjud. Xususan, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish hamda malakali kadrlar salohiyatini oshirish ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarni hal etishda xorijiy ilg'or tajribani o'rganish va uni milliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston va ayrim xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlari taqqoslama tarzda keltirilgan.

1-jadval. Kichik biznes innovatsion faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlarining taqqoslama tahlili

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	Xorijiy mamlakatlar (Yel, AQSh)
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Davlat grantlari, imtiyozli kreditlar	Venchur kapital, startap investitsiyalari
Soliq rag'batlari	Soliq imtiyozlari va yengilliklar	Innovatsiyaga yo'naltirilgan soliq kreditlari
Innovatsion infratuzilma	Texnoparklar, biznes-inkubatorlar	Ilmiy klasterlar, akseleratorlar
Ilm-ishlab chiqarish aloqasi	Rivojlanish bosqichida	Tizimli va institutsionallashgan

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari izchil shakllanib bormoqda. Biroq xorijiy mamlakatlar tajribasida mazkur tizimlar yanada chuqur institutsional asosga ega ekani kuzatiladi. Shu bois, kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirishda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotni barqaror o'sish yo'lga olib chiqish, tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi kichik biznesning innovatsion rivojlanish jarayonlarida faol ishtiroki samarali davlat siyosati, rivojlangan innovatsion infratuzilma va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion asosda rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni tizimli asosda rivojlantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur yo'nalishlarni kuchaytirish innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, kichik biznes subyektlarining innovatsion salohiyatini oshirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, venchur moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish, soliq va moliyaviy imtiyozlarni innovatsiyaga yo'naltirilgan tarzda takomillashtirish hamda innovatsion infratuzilmani mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali kichik biznesning innovatsion faolligini yanada oshirish mumkin.

Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda global raqobat muhitida milliy iqtisodiyot pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
- OECD. SMEs, Entrepreneurship and Innovation. Paris: OECD Publishing, 2021.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik statistik ko'rsatkichlari. Toshkent, 2023.
- Boxodir o'g'li, I. A. (2025). Organization of Accounting for Expenses and Income in Small Businesses. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(3), 1053–1059.



5. Isomukhamedov, A., Kholmirezayev, U., Tursunov, U., Ergashev, I., Aliyeva, G., Karimova, S., & Nadirov, U. (2025). Using AI Enterprise Expenses Prediction and Budgeting Mechanisms. *Reliability: Theory & Applications*, 20(SI 10(88)), 365–371.
6. Boxodir o'g'li, I. A. (2023). Accounting and Analysis of Costs as a Basis of Budgeting. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*, 12(04), 9–12.
7. Mashrabjonovna, X. D. (2025). O'qituvchi innovatsion salohiyatini rivojlantirish zamonaviy o'qituvchini shakllantirishning asosiy omili sifatida. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 63–66.
8. Xakimova, D. (2025). Innovatsiya va innovatsion salohiyatning pedagogik ahamiyati. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 204–208.
9. Dildora, X., Gulruh, O., & To'raxon, A. (2025). The Role of Teacher's Gesture in the Classroom. *International Conference on Interdisciplinary Science*, 2(6), 12–18.
10. Kadirova, X. (2024). Modeli i tendensii razvitiya formiruyushchikhsya finansovyx rynkov. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2(8).
11. Nazira, M. (2024). Kichik biznes va tadbirkorlikda marketingni qo'llash tendensiyalari. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 44–50.
12. Nazira, M., & Zarifa, M. M. (2024). Kichik biznes korxonalarida marketingni rivojlantirish. *Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research*, 3(35), 19–29.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>